

**TEXNOLOGIYA DARSLARIDA SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN TA’LIM
TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH**

*Usmonova Dildora Muratovna
Uchtepa tumani 245 maktab, Texnalogiya fani o`qituvchisi
Tel: +998933941010*

Annotatsiya: Mazkur maqolada shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarining mazmuni, undan foydalanib, texnologiya darsida o‘quvchi shaxsini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari ochib berilgan. Shaxsga yonaltirilgan ta’lim asosida o‘quvchilarning intellektual va emotsional-motivatsion rivojlanishi, bilim va kasbiy malakalar shakllanishi, talim jarayoniga qadriyat sifatida yondashish munosabatini taminlash, faollikni oshirish, oz-ozini anglash va mustaqillagini shakllantirish kabi masalalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, ijodiy va tanqidiy fikrlash, bilim va kasbiy malaka, interfaol ta’lim, tajriba, samaradorlik.

Abstract: This article describes the content of person-centered learning technologies, the pedagogical conditions for the development of the student’s personality in the technology lesson using it. On the basis of person-centered education, issues such as intellectual and emotional-motivational development of students, the formation of knowledge and professional skills, ensuring a value-based approach to the learning process, increasing activity, self-awareness and independence are covered.

Keywords: person-centered education, creative and critical thinking, knowledge and professional skills, interactive education, experience, efficiency.

KIRISH

Zamonaviy sharoitda ta’lim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko‘ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo‘naltirilishi talab qilinmoqda. O‘zida ana shu imkoniyatlarni namoyon eta olgan ta’lim shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim deb nomlanadi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarini texnologiya fanida qo’llash juda samarali natija beradi. Shu boisdan texnologiya darslarida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari - o‘quvchining fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o‘ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltiradi. Bu ta’lim o‘qitish muhitining o‘quvchi imkoniyatlariga moslashtirilishini nazarda tutadi. Unga ko‘ra ta’lim muhiti, pedagogik shart-sharoitlar, ta’lim hamda tarbiya jarayonini to‘laligicha o‘quvchining shaxsiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, qobiliyatini rivojlantirish, shaxs sifatida kamolotga yetishini ta’minlash, tafakkuri va dunyoqarashini boyitishni nazarda tutadi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning o‘ziga xos

jihatni ta'lim oluvchi shaxsini tan olish, uni har tomonlama rivojlantirish uchun qulay, zarur muhitni yaratishdan iboratdir. Texnologiya fani o'quv jarayonlarida bu turdagagi ta'lim o'quvchilarda mustaqillik, ijodkorlik, tashabbuskorlik, javobgarlik kabi sifatlar, shuningdek, mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu turdagagi ta'limni tashkil etishda pedagoglardan har bir o'quvchi imkon qadar individual yondashishni, uning shaxsini hurmat qilishni, unga ishonch bildirishni taqozo etiladi. Qolaversa, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'qitish jarayonining ishtirokchilari pedagog-o'quvchi yoki o'quvchi-o'quvchi, o'quvchilar guruhi, o'quvchi - o'quvchilar jamoasi tarzida o'zaro hamkorlikda bilim olish, shaxs sifatida kamol toptirish uchun qulay pedagogik sharoitni yaratish zaruriyatini ifodalaydi.

ASOSIY QISM

Shaxsga yonaltirilgan texnologiya asosida o'quvchilarning intellektual va emotsiyal-motivatsion rivojlanishi, bilim va kasbiy malakalar shakllanishi, talim jarayoniga qadriyat sifatida yondashish munosabatini taminlash, faollikni oshirish, oz-ozini anglash va mustaqilligini shakllantirish yotadi. O'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim - o'quvchi shaxsiy imkoniyatlariga moslashtirilgan pedagogik muhitni hamda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi. Bu texnologiyada kommunikativ metodlardan keng foydalaniladi, ularning ayrim asosiy belgilarini qarab chiqamiz:

1. Har bir o'quvchiga buyuk shaxsdek qarash, uni hurmat qilish, uni tushunish, qabul qilish, unga ishonish.
2. Ta'limning shunday muhitini yaratish kerakki, unda o'quvchi o'zini shaxs deb sezsin, unga bo'lgan e'tiborni tuysin.
3. Bolaga tazyiq o'tkazmaslik hamda uning kamchiligin bo'rttirmaslik; bilimlarni o'zlashtirmasligi, o'zini yomon tutishi sabablarini aniqlash va ularni bolaning shaxsiyatiga zarar yetkazmaydigan tarzda bartaraf etish;
4. Ta'limda muvaffaqiyat muhitini tashkil etish, bolaga o'qishda muvaffaqiyat qozonishga yordam berish, uning o'z kuchi va iqtidoriga ishonchini orttirish.
5. O'quvchiga atrofdagilarning har biri o'zi kabi ekanligini anglatish, unda jamoaga aloqadorlik hissini rivojlantirish.
6. O'quvchining hurmati va ishonchini qozonish, o'ziga ham shaxs nuqtai nazaridan qarash.
7. Kasb - hunar kollejining o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirish faoliyatida bolalarning kognitiv (aqliy), kommunikativ (nutqmuloqotchanlik), ijitmoiy-hissiy va jismoniy rivojlanishiga sharoit yaratilishini ta'minlash juda muhimdir.
8. Texnologiya fani o'qituvchisi ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim turlaridan foydalanar ekan, bir qator shartlarga qat'iy rioya etishi kerak. - har bir o'quvchinini alohida, o'ziga xos shaxs sifatida ko'ra olishi; - o'quvchini hurmat qilishi; - o'quvchilarda mehnatga bo'lgan hurmat hissini uyg'otishi; - o'quvchining ruhiy holatini to'g'ri baholay olishi; - o'quvchining mehnat munosabatlariga bo'lgan xohish-istak, qiziqishlarini inobatga olishi; - har bir o'quvchiga nisbatan tolerant munosabatda bo'lishi; - o'quvchining kuchi, imkoniyati va intilishlariga ishonch bildirishi; - texnologiya fani asoslarini yetarlicha o'zlashtira olishi uchun qulay ta'lim muhitini

yaratishi; - o‘quvchilarning amaliy mashg‘ulotlarda, mustaqil yoki kichik guruhlarda erkin ishlashlari uchun imkoniyat yaratish; - o‘quvchilarni o‘z faoliyatlarini mustaqil nazorat qilish, faoliyati samaradorligini aniqlash, yutuqlarning omillari va yo‘l qo‘yilgan xatolarning oqibatlarini tahlil qilish o‘rgatish; - ta’lim jarayonida hech bir o‘quvchiga tazyiq o‘tkazmaligi; - alohida o‘quvchining kamchiliklarini bo‘rttirib ko‘rsatmasligi; - bordiyu, o‘quvchi tomonidan bilimlarni o‘zlashtira olmaslik, ta’lim jarayonida o‘zini odobsiz tutish holati qayd etilsa, u holda qat’iy xulosa chiqarmasdan, buning sabablarini aniqlab aniqlangan sabablar asosida o‘quvchining sha’ni, g‘ururiga ziyon yetkazmagan holda u tomonidan bilimlarni o‘zlashtira olmaslik, o‘zini odobsiz tutish kabi holatlarni bartaraf etish; - ta’lim jarayonida har bir o‘quvchi uchun “muvaffaqiyat muhitini yarata olish; - har bir o‘quvchiga ta’lim olishda muvaffaqiyatga erisha olishiga yordam berish; - o‘quvchining hunarlarni o‘rganish borasidagi qobiliyatini o‘stirish, shaxs sifatida rivojlanishiga yordam berish; - o‘quvchining shaxsini emas, balki uning aniq xatti-harakatlarini baholashi; - pedagog sifatida har bir o‘quvchining hurmati va ishonchini qozona olishi zarur. O‘quvchilar shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonida o‘quv materialini o‘zlashtirishga ijodiy, tanqidiy yondoshishni, yangi g‘oyalarni ilgari surish, ularni asoslash, o‘z fikrini himoya qilish, muammoli vaziyatlarda samarali yechimni topish, bilim, ko‘nikma, malakalarni o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Pedagog tomonidan mehnat ta’limi jarayonida innovatsion xarakterga ega turli faol metodlarning qo‘llanilishi, o‘quvchilarni rivojlantirish, qobiliyatlarini yanada o‘stirishga xizmat qiladi. Xususan: texnologiya darslarida amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishda pedagoglar o‘quv axborotlarining o‘quvchilar bilim, ko‘nikma, malaka va tajribalariga tayangan holda ularni qiziqtira oladigan, fikrlashga, ijodiy yondashishga undaydigan imkoniyatga ega bo‘lishini ta’minlashga alohida e’tibor qaratishlari zarur. Texnologiya darslari jarayonida pedagoglar tomonidan: - muammoli izlanish; - kichik tadqiqotlarni olib borish; - debat; - bahs-munozara; - evristik suhbat; - kichik guruhlarda ishslash va b. - turli shakl, metod, vosita va texnologiyalardan samarali, maqsadli foydalanish; - amaliy topshiriqlarini bajarishda o‘quvchilarga usullarni mustaqil tanlash imkonini berish; - o‘quvchini juftlikda, kichik guruhda va jamoada ishslashini ta’minlash; - mashg‘ulotlarning loyihalashtirilishiga e’tiborning qaratilishi nafaqat o‘qitish sifatini yaxshilaydi, samaradorligini oshiradi, shu bilan birga o‘quvchilar shaxsning rivojlanishi uchun qulay sharoitni vujudga keltiradi. Ayni vaqtida shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning quyidagi turlari farqlanmoqda. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning asosiy turlari: ✓ ijodiy topshiriqlar; ✓ kreativ yondashishni taqozo etuvchi vazifalar; ✓ muammoli vaziyatlar; ✓ rolli va ishbilarmonlik o‘yinlari; ✓ bahs-munozara, debat; ✓ musobaqa ko‘rinishidagi bellashuvlar. Bundan tashqari shaxsga yo‘naltirilgan talimning quyidagi asosiy turlari mavjud: Innovatsion ta’lim. hamkorlik ta’limi, interfaol ta’lim, masofaviy ta’lim, muammoli ta’lim, loyiha ta’limi,

kompyuterli ta'lim, rivojlantiruvchi ta'lim, tabaqalashtirilgan ta'lim, modul ta'limi, individual ta'lim, mustaqil ta'lim, dasturiy ta'lim, o'yin texnologiyalari Yuqorida keltirilgan shaxsga yo'naltirilgan ta'lim turlarining barcha turlarini mehnat ta'limi darslarida ham to'gri qo'llay olsak, dars muvaffaqiyatli va ijobjiy samara beradi. Ayniqsa mehnat ta'limida interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish samaralidir. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim turlaridan "interfaol talim metodlari"ni misol qilib olsak, hozirgi zamonaviy sharoitda ta'lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo'li bu mashg'ulotlarni interfaol metodlar yordamida tashkil etish deb hisoblanmoqda [1-30]. Xo'sh, interfaol metodlarning o'zi nima? Ular qanday didaktik imkoniyatlarga ega? Ta'lim jarayonida interfaol metodlarning o'rinni, maqsadga muvofiq qo'llanilishi qanday samaralarni kafolatlaydi? Quyidagi anna shu kabi savollarga qisqacha javob berib o'tamiz. Interfaol ta'lim (ingl. "interact", rus. "interaktiv"; "inter" - o'zaro, "act" - harakat qilmoq) - o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lidagi o'zaro harakatini tashkil etishga asoslanuvchi ta'lim. Mohiyatiga ko'ra interfaollik mehnat talimi dars jarayonlarida o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida birligida, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatiga egaliklarini anglatadi [1-30]. Mantiqiy nuqtai nazaridan esa interfaollik, eng avvalo, ijtimoiy sub'ektlarning suhbat (dialog), o'zaro hamkorlikka asoslangan harakat, faoliyatni olib borishlarini ifodalandaydi. Texnologiya fani sohasida faoliyat yuritayotgan har bir mutaxassis yaxshi biladiki, an'anaviy ta'lim ham suhbat (dialog)ga asoslangan va bu suhbat quyidagi o'zaro munosabat shakllarida tashkil etiladi. O'qituvchi - o'quvchi, an'anaviy ta'limdagi suhbat ishtirokchilari, o'qituvchi - o'quvchilar guruhi (jamoasi). Interfaol ta'limdagi suhbat ishtirokchilari: - o'quvchi - o'quvchi (juftlikda ishslash); - o'quvchi - o'quvchilar guruhi (guruh yoki kichik guruhda ishslash); - o'quvchi - o'quvchilar jamoasi (sinf, guruh jamoasida ishslash); - o'quvchi - axborot-kommunikatsion texnologiyalar. "Interfaol talim texnologiyalari" mohiyatiga ko'ra suhbatning "to'quvchi - axborot - kommunikatsion texnologiyalar" shaklida tashkil etilishi o'quvchilar tomonidan mustaqil ravishda yoki o'qituvchi rahbarligida axborot texnologiyalari yordamida bilim, ko'nikma, malakalarning o'zlashtirilishini anglatadi. Texnologiya fani o'qituvchisi interfaol ta'lim yordamida o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik, mashg'ulot loyihibarlarini to'g'ri tuza olishi, o'z-o'zini nazorat, o'z-o'zini boshqarish, samarali suhbat olib borish, tengdoshlari bilan ishslash, ularning fikrlarini tinglash va tushunish, mustaqil, ijodiy, tanqidiy fikrlash, muqobil takliflarni ilgari surish, fikr-mulohazalarini erkin bayon qilish, o'z nuqtai nazarlarini himoya qilish, muammoning yechimini topishga intilish, murakkab vaziyatlardan chiqa olish kabi sifatlarni shakllantirishga muvaffaq bo'ladi. Eng muhimmi, interfaol talim texnologiyalarini qo'llash orqali mehnat talimi o'qituvchisi o'quvchilarning aniq ta'limiy maqsadga erishish yo'lida o'zaro hamkorlikka

asoslangan harakatlarini tashkil etish, yo‘naltirish, boshqarish, nazorat va tahlil qilish orqali xolis baholash imkoniyatini qo‘lga kiritadi. Mehnat talimi jarayonining interfaol talim texnologiyalariga asoslanishi bir qarashda nihoyatda oddiy, sodda, hatto “bolalar o‘yini” kabi taassurot uyg‘otadi. Biroq, bunda o‘qituvchining ma’lum darajada quyidagi omillarga ega bo‘lishi talab qilinadi. Interfaol ta’lim samaradorligini ta’minlovchi asosiy omillar: Ish tajribasi, metodik malaka, tayanch pedagogik-psixologik bilimlar, tashkilotchilik qobiliyati, didaktik vositalar (axborot, tarqatma materiallar, dars jihozlari)ga ega bo‘lish, o‘quvchi va o‘quvchilar guruhi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning ishonch va hurmatga asoslanishi, o‘quvchi va o‘quvchilar guruhining o‘zaro hamkorlikka erisha olishi, ta’lim jarayonida demokratik g‘oyalarning ustuvor o‘rin tutishi, axborotlarni taqdim etishda xilma-xil metod, vositalarning samarali, o‘rinli, maqsadga muvofiq va o‘zaro moslikda qo‘llashga erishish. Texnologiya fani dars jarayonlarida interfaol talim texnologiyalariga asoslangan ta’limiy harakatlar quyidagi shakkarda tashkil etiladi:

- individual;
- juftlik;
- guruh;
- jamoa bilan ishlash.

Ko‘p hollarda texnologiya fanida sinfdan tashqari (to’garak mashg‘ulotlari)da har bir o‘quvchiga individual yondashish samarali natija beradi. Interfaol talim texnologiyalarini qo‘llash jarayonida o‘quvchilar quyidagi imkoniyatlarga ega bo‘ladi: guruh yoki jamoa bilan hamkorlikda ishslash, tengdoshlari orasida o‘z g‘oyalarini erkin bayon qilish, bilimlarini hech qanday ruhiy to‘sirlarsiz namoyish etish, muammoni hal qilishga ijodiy yondashish, guruh yoki jamoadoshlari bilan ruhiy yaqinlikka erishish, o‘z ichki imkoniyat va qobiliyatlarini to‘liq namoyon qila olish, fikrlash, fikrlarni umumlashtirish va ular orasidan eng muhimlarini saralash, o‘z faoliyatini nazorat qilish va mustaqil baholash, o‘z imkoniyatlari va kuchiga ishonch hosil qilish, turli vaziyatlarda harakatlanish va murakkab vaziyatlardan chiga olish ko‘nikmalarini o‘zlashtirish. Interfaol ta’limning asosiy belgilari: ko‘p fikrlilik, suhbat (dialog), fikrlashga asoslangan faoliyat, g‘oyalarning yaratilishi (ilgari surilishi), tanlash imkoniyatining mavjudligi, muvaffaqiyatli vaziyatlarni hosil qilish. XULOSA Texnologiya fani dars jarayonlarini shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim asosida o‘qitish, o‘quvchilarda bilimlarni o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otadi, ta’lim jarayonining har bir ishtirokchisini rag‘batlantiradi, har bir o‘quvchining ruhiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, o‘quv materialining samarali o‘zlashtirilishi uchun qulay sharoit yaratadi, o‘quvchilarga ko‘p tomonlama ta’sir ko‘rsatadi, o‘quvchilarda o‘rganilayotgan kasblar bo‘yicha fikr hamda munosabatni uyg‘otadi, o‘quvchilarda hayotiy zarur ko‘nikma, malakalarni shakllantiradi, o‘quvchilarning xulq-atvorini ijobiy tomonga o‘zgartirilishini ta’minalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rasulova Z.D. (2020). Pedagogical peculiarities of developing socioperceptive competence in learners. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. 8:1, pp. 30-34.
2. Расулова З.Д. (2020). Дидактические основы развития у будущих учителей креативного мышления. European science, vol. 51, no. 2-2, pp. 65-68.
3. Расулова З.Д. (2018). Значения обучающих технологий направленной личности на уроках трудового обучения. Ученые XXI века, Т. 47, № 12, С. 34-35.
4. Rasulova Z.D. (2020). Conditions and opportunities of organizing independent creative works of students of the direction Technology in Higher Education. International Journal of Scientific and Technology Research. 9:3, pp. 2552-2155.
5. Кулиева Ш.Х., Расулова З.Д. (2016). Формирование профессиональнопедагогической компетентности будущих специалистов на основе информационных технологий. Молодой учёный, №8 (112), С. 977-978.
6. Кулиева Ш.Х., Расулова З.Д. (2016). Инновационная деятельность педагога в образовании. Молодой учёный, № 8 (112), С. 978-979.
7. Аноркулова Г.М., Кулиева Ш.Х., Расулова З.Д. (2015). Методологические основы системного подхода при подготовке учителей профессионального обучения. Молодой учёный, 93:13, С. 588-590.
8. Аноркулова Г.М., Кулиева Ш.Х., Расулова З.Д. (2015). Модель подготовки учителей профессионального образования на основе системного подхода. Молодой учёный, 93:13, С. 590-592.
9. Кулиева Ш.Х., Хамроева Х.Ю., Расулова З.Д. (2013). Учебный процесс как педагогическая система в процессе подготовки учителей профессионального обучения. Молодой учёный, 56:9, С. 383-385.
10. Каххоров С.К., Расулова З.Д. (2020). Роль дистанционного обучения а развитии творческих навыков студентов. Проблемы педагогики. 49:4, С. 26-29.